

UO‘T: 633.511.512.127:581.169

**YARATILGAN G‘O‘ZA TIZMALARIDA QIMMATLI XO‘JALIK
BELGILARNING O‘ZARO KORRELYATIV BOG‘LIQLIGI**

Raupov Sardar Abdumurod o‘g‘li

TDAU “Seleksiya va urug‘chilik” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil tadqiqotchisi
sardarraupov@gmail.com

Go‘zal Ro‘ziyevna Xolmurodova

*“Qishloq ekinlar genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi” kafedrası professori,
q.x.f.d. (DSc), professor*
guzalruziyevna@gmail.com

Tursunbayev Farrux Fayzullayevich

*TDAU “Seleksiya va urug‘chilik” mutaxassisligi bo‘yicha 1-bosqich magistri,
TDAU “Qishloq ekinlar genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi” kafedrası*
farruxtursunboyev1990@gmail.com

Yunusova Munisa Murat qizi

*TDAU “Seleksiya va urug‘chilik” mutaxassisligi bo‘yicha 1-bosqich magistri,
TDAU “Qishloq ekinlar genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi” kafedrası*
munisayunusova55@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yaratilgan g‘o‘za tizmalarida qimmatli xo‘jalik belgilarning o‘zaro korrelyativ bog‘liqligi keltirib o‘tildi. Yaratilgan tizmalarda bir tup o‘simlikdagi mahsuldorlikning bitta ko‘sakdagi paxta vazni orasidagi bog‘liqlik kuchsiz ijobiy, bir tup o‘simlikdagi mahsuldorlikning tola uzunligi orasidagi bog‘liqlik kuchsiz bog‘liqlik, bir tup o‘simlikdagi mahsuldorlikning 1000 dona chigit vazni bilan bog‘liqligi T-165-179 tizmasida o‘rta ijobiy, T-176-191 tizmasida kuchsiz ijobiy, tola uzunligi bilan tola chiqimi orasida hamda tola chiqimi va 1000 dona chigit vazni orasida T-340 tizmasida kuchsiz ijobiy bo‘lib, ular ustida kelajakda genetik-seleksion tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: g‘o‘za, tizma, nav, korrelyativ bog‘liqlik, hosildorlik elementlari, bir tup o‘simlikdagi mahsuldorlik, bitta ko‘sakdagi paxta vazni, tola uzunligi, bir tup o‘simlikdagi mahsuldorlikning 1000 dona chigit vazni.

Annotation: The article presents the correlational relationships among valuable agronomic traits in the developed cotton lines. In the created lines, the correlation between single plant productivity and the weight of cotton per boll was found to be weak positive; the correlation between single plant productivity and fiber length was weak; the correlation between single plant productivity and 1000-seed weight was moderately positive in line T-165-179 and weakly positive in line T-176-191. The correlations between fiber length and fiber yield, as well as between fiber yield and 1000-seed weight, were weakly positive in line T-340. It is



considered advisable to further continue genetic and breeding research on these lines in the future.

Keywords: *cotton, line, variety, correlational relationship, yield components, single plant productivity, cotton weight per boll, fiber length, 1000-seed weight.*

Kirish. O'zbekistonda paxtachilik tarmog'i qishloq xo'jaligi va milliy iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri bo'lib, mamlakat yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmida katta ulushni egallaydi. Respublikada asosan o'rta tolali *G. hirsutum* L. turiga mansub navlar yetishtiriladi, ular maydonning qariyb 99 foizini tashkil qiladi. Biroq mavjud navlarda tola sifati, ayniqsa uzunlik va mustaxkamlik ko'rsatkichlarini yuqori hosildorlik bilan uyg'unlashtirishda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Shuningdek, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining cheklanishi va kasallik-zararkunandalarning tarqalishi seleksiya jarayonida qo'shimcha to'siqlar yaratmoqda. Bularni bartaraf etishda seleksiya jarayonlaridagi samarali tanlovlar, belgilar orasidagi tabiatan teskari korrelyativ bog'liqliklarni uzish, ya'ni ijobiy bog'liqliklarga keltirish uchun to'g'ri tanlovlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

G'o'za navlari seleksiyasida yetishtirishda eng muhim ko'rsatkichlardan biri hosildorlik omillari o'rtasida korrelyatsiya bog'liqlikni o'rganish uchun g'o'zaning *G. hirsutum* L. turiga mansub ashyolarida o'n yettita morfo-xo'jalik belgilari oltmish uchta genotip bilan amalga oshirilgan bo'lib, monopodiyalar soni, o'simlikning nisbiy xlorofil tarkibi, bo'g'in oralig'i va bitta ko'sakdagi paxta vazni kabi belgilari fenotipik hamda genotipik darajalarda g'o'zaning urug'lik hosili bilan ijobiy korrelyativ bog'liqlik borligi aniqlangan.

Ma'lumki, ko'pchilik belgilar orasidagi ijobiy va salbiy bog'lanishlar nisbatan barqaror hisoblanib, ularni duragaylash usullari yordamida bartaraf etish mumkin. G'o'za seleksiyasida turli xo'jalik belgilarining o'zaro bog'liqligini o'rganish borasida olib borilgan izlanishlar natijalarida ayrim belgilar o'rtasidagi salbiy bog'lanishlarni uzish qiyinligi aniqlangan. Masalan, tola chiqimi bilan tola uzunligi, bitta ko'sakdagi paxta vazni bilan bir tup o'simlikdagi ko'saklar soni, hosildorlik bilan ertapisharlik kabi belgilar o'rtasida kuchli salbiy bog'lanish mavjudligi qayd etiladi. Lekin, qator izlanishlar orqali salbiy bog'lanishlarni ham uzish mumkinligi tasdiqlangan. Seleksioner olimlar tomonidan erishilgan natijalar har xil chatishtirish uslublarini qo'llash va ko'p martalik tanlov ishlarini olib borish orqali ayrim belgilar o'rtasidagi salbiy korrelyatsiyalarni buzish mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi g'o'zaning *G. hirsutum* L. turiga mansub seleksion ashyolar asosida Andijon viloyati tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan hosildor va tolasining sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan tizm alar va nav yaratishdan iborat.

Shu sababli o'tkazilgan tajribamizda murakkab duragaylash asosida yaratilgan tizmalarni o'rganishning ikkinchi yilida qimmatli xo'jalik belgilarining o'zaro bog'liqligi o'rganildi.



Bir tup o'simlikdagi mahsuldorlik bilan bitta ko'sakdagi paxta vazni ko'rsatkichlari orasidagi korrelyativ bog'liqliklar shuni ko'rsatdiki, murakkab duragaylash asosidagi T-165-179 tizmasida $r=0,55$ ga teng bo'lib, o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik, qolgan tizmalarda esa kuchsiz ijobiy bog'liqliklar kuzatildi (jadvalga qarang).

Jadval

Tizmalarning qimmatli xo'jalik belgilarini o'zaro korrelyativ bog'liqligi

Tizmalar	bir tup o'simlikdagi mahsuldorlikning								Tola uzunligi		Tola chiqimi	
	Bitta ko'sakdagi paxta vazni		Tola uzunligi		Tola chiqimi		1000 dona chigit vazni		uzunligi bilan tola chiqimi		chiqimi bilan 1000 dona chigit vazni	
	r	m	r	m	r	m	r	m	r	m	r	m
T-340	0,33	0,2	0,24	0,2	0,28	0,2	0,21	0,2	0,24	0,2	0,29	0,2
T-160	0,32	0,2	0,08	0,2	0,32	0,2	0,19	0,2	0,24	0,2	0,38	0,2
T-101-191	0,04	0,2	0,12	0,2	0,11	0,2	0,29	0,2	0,19	0,2	0,06	0,2
T-165-179	0,55	0,2	0,04	0,2	0,04	0,1	0,42	0,2	0,38	0,2	0,28	0,2

Bir tup o'simlik mahsuldorligining tola uzunligi orasidagi bog'liqligi murakkab duragaylash asosida yaratilgan tizmalar orasidan T-340, T-160, T-165-179 tizmalarida kuchsiz darajadagi ijobiy bog'liqliklar kuzatilib, tegishli ravishda $r=0,24$, $r=0,08$, $r=0,04$ ga teng bo'lganligi kuzatildi. T-176-191 tizmasida salbiy kuchsiz darajadagi bog'liqlik qayd etildi (tegishli ravishda $r=-0,12$).

Bir tup o'simlik mahsuldorlikning tola chiqimi orasidagi bog'liqligi murakkab duragaylash asosida barcha tizmalarda kuchsiz darajadagi ijobiy bog'liqlik qayd etildi.

Bir tup o'simlik mahsuldorlikning 1000 dona chigit vazni orasidagi bog'liqligi murakkab duragaylash asosida olingan oilalar orasida T-165-179 ($r=0,42$) oilasida o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik, T-176-191 ($r=0,29$)

tizmalarida kuchsiz darajadagi ijobiy bog'liqlik, qolgan oilalarda esa salbiy kuchsiz bog'liqlik qayd etildi.

Tola uzunligi va tola chiqimi orasidagi o'zaro korrelyativ bog'liqlik natijalari shuni ko'rsatdiki, murakkab duragaylash asosidagi T-340 ($r=0,24$) va T-165-179 ($r=0,38$) tizmalarining kuchsiz ijobiy bog'liqlik kuzatilib, qolgan tizmalarda kuchsiz salbiy bog'liqliklar qayd etildi.



Tola chiqimi bilan 1000 dona chigit vazni orasidagi korrelyativ bog'liqlik murakkab duragaylash asosidagi T-340 tizmasida $r=0,29$, T-165-179 tizmasida $r=0,28$ kuchsiz ijobiy bog'liqliklar kuzatildi. Qolgan 2 ta oilada salbiy kuchsiz (T-176-191 - $r=-0,06$) dan salbiy o'rta (T-160 - $r=-0,38$) darajadagi korrelyativ bog'liqlik qayd etildi.

Xulosalar. Yaratilgan tizmalarda bir tup o'simlikdagi mahsuldorlikning bitta ko'sakdagi paxta vazni orasidagi bog'liqlik kuchsiz ijobiy, bir tup o'simlikdagi mahsuldorlikning tola uzunligi orasidagi bog'liqlik kuchsiz bog'liqlik, bir tup o'simlikdagi mahsuldorlikning 1000 dona chigit vazni bilan bog'liqligi T-165-179 tizmasida o'rta ijobiy, T-176-191 tizmasida kuchsiz ijobiy, tola uzunligi bilan tola chiqimi orasida hamda tola chiqimi va 1000 dona chigit vazni orasida T-340 tizmasida kuchsiz ijobiy bo'lib, ular ustida kelajakda genetik-seleksion tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Namazov SH.E., Xolmurodova G.R., Djumayeva G.P., Matyokubov S.K. G.hirsutum L. G'o'za navlari seleksiyasida turli xil murakkab duragaylash usullarining samaradorligi.

2. MonografiY. Toshkent: "Navro'z", 2019.-99 b. Namazov SH., Boboev S., Xolmurodova G. and y. Effectiveness of interspecific hybridization of cotton to improve some agronomic traits. //6thMeeting of the Asian Cotton Research and Development Network. -Dhaka, Bangladesh, june 18-20. - 2014. –p.17.

3. Xolmurodova G., S.Boboyev, R.Yuldasheva, G.Djumayeva, O.Abdurahmonov. Murakkab konvergent turlararo duragay oila hamda tizmalarning ayrim xo'jalik belgilar. //Agro ilm jurnali. –Toshkent, 2015. -№2-3[34-35]. –B.14-16.

